



## 2021- yil yanvar-mart oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida jami **4804,3** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **113,3%** ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



**Ma‘lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 8,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **116,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **52,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **126,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,2%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **125,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **44,4 %**) o'sishidir.




**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.04.2020- yil	01.04.2021- yil	
<b>Toshkent sh.</b>	<b>7356</b>	<b>8517</b>	<b>115,7</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>149</b>	<b>181</b>	<b>121,4</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>935</b>	<b>1076</b>	<b>115,0</b>
<b>Mirobod</b>	<b>649</b>	<b>774</b>	<b>119,2</b>
<b>Olmazor</b>	<b>616</b>	<b>706</b>	<b>114,6</b>
<b>Sergeli</b>	<b>485</b>	<b>458</b>	<b>94,4</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>542</b>	<b>620</b>	<b>114,3</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>979</b>	<b>1085</b>	<b>110,8</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>582</b>	<b>676</b>	<b>116,1</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>979</b>	<b>1112</b>	<b>113,5</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>770</b>	<b>863</b>	<b>112,0</b>
<b>Yangihayot</b>		<b>170</b>	
<b>Yashnobod</b>	<b>670</b>	<b>796</b>	<b>118,8</b>



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da 01.04.2021- yil holatiga ko'ra




**Ma'lumot uchun:** shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,1 %), Chilonzor tuman (12,8 %) va Mirzo Ulug'bek (12,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **968,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilga nisbatan **104,2 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **2,0 %** punktga kamayib, **20,2%** ni tashkil etdi.




**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da**



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Uchtepa tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,3 %i yoki 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 18051,1 % koʻp), Olmazor (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 31,2 % i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 99,7 %), va Chilonzor tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,0 % i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 99,4 % ) ga toʻgʻri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-mart
- 2021- yil yanvar-mart


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **13,3 %** ni tashkil etdi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,0 %** punktga ko'paygan yoki **639,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilga nisbatan **111,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlari bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,0 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **116,7 %** ni tashkil etgan holda **3196,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **129,4** mlrd. so‘m yoki 2020- yilga nisbatan **121,6 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4674,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati **129,1 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,7 %** va **97,3 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-mart oylarida

66,7 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **66,7 %** i yoki **3231,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

70,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **681,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **70,4 %** ni tashkil etdi.

66,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2125,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,5 %** ni tashkil etdi.

66,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **424,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **66,4 %** ni tashkil etdi.





### Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Toshkent sh.</b>	<b>4 804,3</b>	<b>113,3</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	244,9	113,6	5,1
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	489,1	113,9	10,2
<b>Mirobod</b>	433,4	113,9	9,0
<b>Olmazor</b>	482,6	112,8	10,0
<b>Sergeli</b>	345,9	112,0	7,2
<b>Uchtepa</b>	472,9	114,3	9,8
<b>Chilonzor</b>	439,3	114,9	9,2
<b>Shayxontohur</b>	399,7	113,9	8,3
<b>Yunusobod</b>	556,1	110,9	11,6
<b>Yakkasaroy</b>	379,7	113,0	7,9
<b>Yangihayot</b>	204,1	113,8	4,3
<b>Yashnobod</b>	356,4	114,4	7,4

\*Tumanlar bo‘yicha taqsimlangan hajmni qo‘shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2020-yil yanvar-mart

20,7



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

20,1



Fuqarolik obyektlarini qurish

59,3



Bino va inshootlarni qurish

2021- yil yanvar-mart

20,0



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

17,3



Fuqarolik obyektlarini qurish

62,7



Bino va inshootlarni qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,2 %** ni tashkil etib, 2020- yil ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga ko'payib, **66,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamayib, **25,9 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan **0,6 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **69,0 %** (**3,0 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilga nisbatan **0,6 %** punktga kamaydi va **10,1%** ni tashkil etdi. Qolgan **89,9%** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilga nisbatan **0,6 %** punktga ko'paydi.





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo‘yicha tarkibida Uchtepa (tumandagi qurilish hajmining **35,3** % ni tashkil etdi) va Olmazor (mos ravishda **31,2** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-mart oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod  
556,1

2

Olmazor  
482,6

1

Mirzo Ulug`bek  
489,1

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Yangi xayot  
204,1

2

Sirg`ali  
345,9

1

Bektemir  
244,9

3





# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

---

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas’ul: D.Rustamov  
Aloqa telefoni: (71) 203-88-19